

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 239 (1300), 2024-yil 24-noyabr, yakshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

ATROF-MUHITNI ASRASHDEK EZGU TASHABBUSGA HAR BIR YURTDOSHIMIZ HISSA QO‘SHISHI KERAK

Prezident Shavkat Mirziyoyev 23-noyabr kuni Toshkent shahri atrofida “yashil belbog” barpo etish loyihasi doirasida daraxt ekish tadbirida ishtirok etdi hamda Yangihayot tumaniga tashrif buyurib, sanoat korxonalarini faoliyati va mahalladagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida barpo etilayotgan yangi boqqa ko‘chat ekdi.

Bugungi asrga kelib, tabiat sofligi eng dolzarb masalaga aylandi. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho‘llanish, global isish tabiiy muvozanatga va odamlar sog‘lig‘iga zarar yetkazmoqda. Yurtimizda bu oldindan anglanib, atrof-muhitni asrash choralarini ko‘rilmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bundan uch yil avval boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi chinakam xalq harakatiga aylandi. Har yili bahor va kuzda daraxt ko‘chatlari ekish an‘anasi jonlandi.

Prezidentimizning o‘zi bunda doimo o‘rnak. Avvalgi yillarda Yangi Toshkent, Sergeli, Chilonzorda ko‘chatlar ekkan edi. Bu yil poytaxtimizning Bektemir tumanida, Toshkent halqa yo‘li bo‘yida yashil hududga asos solindi.

Buning uchun 100 gektar yer ajratilgan bo‘lib, ikki yilda jami 100 ming tup daraxt va buta ko‘chatlari ekiladi. Ularni parvarishlash uchun 3 ta sun‘iy suv xavzasi va 12 ta quduq barpo etildi.

Ma‘lumki, “Yashil makon” loyihasida shaharlar yashillik darajasini 30 foizga yetkazish, xususan, ularning atrofida “yashil belbog” yaratish maqsadi belgilangan. Halqa yo‘li bo‘yidagi bu hudud Toshkent “yashil belbog”ining bir qismi bo‘ladi. Yana bir e‘tiborli tomoni, bu yerda tabiiy o‘rmon shakli hosil qilinadi.

Davlatimiz rahbari jamoatchilik vakillari va chet ellik diplomatlar bilan suhbatlashdi, ushbu xayrli tashabbusga hissa qo‘shayotgani uchun minnatdorlik bildirdi.

— Bu an‘ana o‘zi bizda bor. Xalqimiz tabiatni “ona” deydi, yerni, suvni e‘zozlaydi. Buning zamiridagi haqiqat hozirgi ekologik muammolar ta‘sirida yaqqol namoyon bo‘lyapti. Shuning uchun “Yashil makon” loyihasini boshladik. Kelgusi yil nomini ham atrof-muhitni asrash masalasiga bag‘ishladik.

Endi bu tashabbuslar keng yoyilishi, ayniqsa, yoshlarimizga chuqur singishi zarur. Har bir xonadon, har bir korxonada tabiatni asrashga hissa qo‘shishi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tadbirni videoaloqa orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar jamoatchiligi ham kuzatdi. U yerlarda ham ko‘chatlar ekildi. Ushbu kuzgi mavsumda “Yashil makon” loyihasi doirasida 80 million tup daraxt va buta ko‘chatlarini ekish rejalashtirilgan.

Bahorda 138 million dona ko‘chat ekilgan edi. Vazirlik va hokimliklar 257 ta bog‘ barpo qilgan. Yirik sanoat korxonalarini va chiqindi poligonlarini atrofida ham daraxtlar ekilib, “yashil belbog”lar tashkil qilinmoqda.

Avtomobil va temir yo‘llari, daryo va kanallarga tutash yerlar daraxt ekish uchun qariyb 10 ming aholi va tadbirkorga ijara shartnomasi asosida ajratib berildi. “Mening bog‘im” loyihasi doirasida g‘olib deb topilgan 215 ta loyiha bo‘yicha bosqichma-bosqich ekish ishlari boshlandi.

Umuman, oxirgi 3 yilda mamlakatimiz bo‘yicha jami 646 million tup ko‘chat va butalar ekilgan. Orolbo‘yida yashil qoplama 2 million gektardan oshgan.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Yangihayot tumanida barpo etilayotgan “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasida bo‘ldi.

Mamlakatimizda sanoat va tadbirkorlik rivojlangani sari qo‘shimcha sharoitlarga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Davlatimiz rahbarining shu yil 20-martdagi qarori bilan tashkil etilgan mazkur sanoat zonasini yana ko‘plab korxonalariga joy bo‘ladi.

Hudud iqtisodiyotida katta o‘ringa ega bo‘lishi kutilayotgan majmua maydoni 764 gektar. Ayni paytda infratuzilma tarmoqlari barpo etilmoqda. Bu yerda oziq-ovqat, qurilish materiallari, elektrotexnika, mashinasozlik va kimyo sanoati kabi yo‘nalishlarda 1 milliard 375 million dollarlik 47 ta loyiha

joylashtiriladi. Ularda 12 mingtaga yaqin yangi ish o‘rni yaratiladi.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, korxonalarda xalqaro brendlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi. Xususan, “DP World”, “JAC Motors”, “Krantas”, “Aces Japan”, “East can solutions”, “EAS” va “Evyap” kabi nufuzli kompaniyalar hamkorligida qo‘shilgan qiymatli, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Davlatimiz rahbariga shunday loyihalardan ayrimlari taqdimot qilindi.

Xususan, Xitoyning “CAMC Engineering” kompaniyasi bilan sanoat zonasini boshqarish, investorlarni jalb qilish va infratuzilma obyektlarini barpo qilish ko‘zda tutilgan. “JAC Motors” kompaniyasi tijorat avtotransport vositalarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadi. 135 million dollarlik bu loyiha natijasida 2 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi. Yaponiyaning “Aces Japan” kompaniyasi bilan hamkorlikda 9 million dollarlik ofis uchun o‘rindiqliq va mebellar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilib, yana 100 kishining bandligi ta‘minlanadi.

Birlashgan Arab Amirlikining “DP World” kompaniyasi bilan esa transport-logistika markazini tashkil etish bo‘yicha ishlar boshlangan.

Hududda laboratoriya, tadqiqotlar markazi, konferensiyalar zalari hamda savdo zonasini tashkil etiladi. Shuningdek, dual ta‘lim yo‘lga qo‘yilib, sanoat korxonalarini uchun kerakli mutaxassislar shu yerning o‘zida tayyorlanadi.

— Oxirgi yillarda yalpi ichki mahsulotimiz ikki barobar o‘shib, bu yil 110 milliard dollarga yetyapti. Endi buni 200 milliard dollarga yetkazishga marra oldik. Investorlarning loyihalarini uchun barcha sharoitni yaratib bermasak, bu ko‘rsatkichga yetolmaymiz. Toshkent shahri bunda ham namuna bo‘lishi kerak, — dedi Prezident.

Mutasaddirlarga loyihalarda mahalliyashtirish va raqamlashtirish, energiya tejamlorlikka ahamiyat qaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari Toshkent shahridagi “Yangihayot” industrial texnoparkida ham bo‘ldi.

Yangihayot tumanida 184 mingdan ziyod aholi yashaydi. So‘nggi yillarda ko‘plab yangi uylar qurilib, oilalar ko‘chib keldi. Ular uchun shu yaqin atrofda ish o‘rinlari tashkil etishga harakat qilinmoqda.

Prezidentimizning 2021-yil 4-fevraldagi qarori asosida barpo etilgan “Yangihayot” texnopark shu maqsadga qaratilgan. Shavkat Mirziyoyev 2022-yilda qurilish maydoni va bo‘ljak loyihalar bilan tanishgan edi. Texnopark uchun 110 gektar maydon ajratilgan.

Avvalo, bosh reja ishlab chiqilib, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari qurildi. Xususan, 10,8 kilometrlik suv va oqova, yomg‘ir suvlarini qochirish tizimi barpo etildi, 2,9 kilometrlik ichki yo‘llar qurilib, 51 kilometr elektr liniyasi hamda 5,9 kilometr gaz tarmog‘i tortildi.

Hozir bu yerda 101 million dollarlik 8 ta korxonaga ishga tushirilgan, 520 ta ish o‘rni yaratilgan.

Davlatimiz rahbari ularning ayrimlarini ko‘zdan kechirdi.

Masalan, “Almerro Grup” mas‘uliyati cheklangan jamiyatida “Krember” brendi ostida qandolat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Buning uchun 3 gektar yer ajratilgan, 22 million dollar yo‘naltirilgan. Italiya, Ispaniya va Turkiya davlatlaridan keltirilgan ilg‘or texnologiya o‘rnatilgan. Korxonada yiliga 320 milliard so‘mlik 80 turdagi qandolat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ko‘zda tutilgan. Mahsulotlarning 15-20 foizi Xitoy va MDH davlatlariga eksport qilinadi.

Qiymati 21 million dollarlik “Vera Modern Elektrical” korxonasi 600 turdagi kabel va sim mahsulotlari ishlab chiqarish, 4 million dollarlik eksport quvvatiga ega. Muhimi, mahsulotlarning 35-40 foizi import o‘rnini bosadi hamda mahalliyashtirish darajasi 70 foizga yetkaziladi.

Davlatimiz rahbari korxonalar mahsulotlarini ko‘zdan kechirdi.

— Keyingi yillarda tadbirkorlarga yaratilgan sharoitlar bugun o‘z natijasini beryapti. O‘zimizning ishbilmonlar mana shunday ko‘p xilda va yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqaryapti. Bu imkoniyatlarni har yili kengaytirib boramiz.

Chunki tadbirkor iqtisodiyot poydevori, davlat tayanchi, — dedi Prezident.

Shavkat Mirziyoyev ishlab chiqarish faoliyati uchun tayyor bino-inshootlar qurish loyihasi bilan ham tanishdi. Texnopark ichida “Mimar Group” kompaniyasi tomonidan ikki qavatli majmua qurilib, kichik korxonalar va hunarmandlarga muddatli to‘lov asosida sotilmoqda. Ularning har birida alohida ishlab chiqarish va ko‘rgazma maydonlari bo‘ladi.

Bugungi kunda shunday binolarda umumiy qiymati 3 million dollarlik 4 ta loyiha — eshik-romlar, to‘qimachilik mahsulotlari, qurilish uchun profil va quyosh panellari korxonalarini ish boshlagan.

Prezidentimizga texnoparkdagi rejalar bo‘yicha ma‘lumot berildi. Jumladan, qurilish materiallari, elektrotexnika, logistika va xizmat ko‘rsatish, tekstil va to‘qimachilik sanoati, oziq-ovqat sanoati kabi yo‘nalishlarda 386 million dollarlik 46 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, texnoparkdagi korxonalar uchun mutaxassislar tayyorlashda dual ta‘lim yo‘lga qo‘yiladi.

Umuman, texnoparkda 2025-yilda 235 million dollarlik 37 ta, 2026-yilda esa 50 million dollarlik 1 ta loyiha ishga tushiriladi. Natijada 10 mingta yangi ish o‘rni va 35 million dollarlik eksport imkoniyati yaratiladi. O‘tgan o‘n oyda Yangihayot tumanida 3 mingdan ziyod aholi doimiy ishga joylashtirilgan, 6 mingta o‘zini o‘zi band qilgan shaxs ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

So‘ng davlatimiz rahbari Yangihayot tumanidagi Xushnud mahallasida bo‘lib, aholi hayoti, hududdagi o‘zgarishlar bilan tanishdi.

Mahalla yangi — 2021-yil tashkil etilgan. Bu yerdagi 48 ta ko‘p qavatli uy hamda 625 ta hovli 11 mingdan ziyod aholi yashaydi. Bolalar bog‘chasi, sport maktabi, oilaviy poliklinika, xususiy klinika, ishlab chiqarish korxonalarini, do‘kon va maishiy xizmat shoxobchalari bor. Bu yil 49 ta mikroloyiha orqali 116 nafar fuqaroga bandligi ta‘minlandi.

Avvallari bu joylar chekka, ko‘rimsiz edi. 2018-yildan boshlab zamonaviy uylar, bolalar o‘yingohi va sport maydonchalari qurildi. Atruf obodonlashtirildi.

Mahallaning uch qavatli binosi ham shu yil bunyod etildi. Uning birinchi qavatida mahalla raisi va xodimlarining xonalari, kutubxona, jadidlar burchagi joylashgan. Yuqori qavatlarda aniq fanlar va xorijiy tillar bo‘yicha o‘quv markazi, fitnes zal faoliyat olib bormoqda. Yerto‘la qismida yoshlarni kasbga yo‘naltiruvchi monomarkaz tashkil etilgan.

Davlatimiz rahbari ushbu sharoitlarni ko‘zdan kechirdi. Mahalla faollari va nuroniyar bilan suhbatlashdi. Ular so‘nggi yillarda Yangihayot tumani jadal o‘zgargani, yangi transport yo‘llari va korxonalar qurilib, hayot jonlanganini aytdi.

— Bugun kelishimizdan maqsad qabul qilayotgan qarorlarimiz natijasini, odamlar hayotini ko‘rish. Xuddi bu tumandagiday, har bir hududni rivojlantirish, odamlarga qulayliklarni va ish joylarini ko‘paytirishga harakat qilayapmiz. Shu bilan birga, ta‘lim-tarbiyaga, madaniyatga katta e‘tibor qaratyapmiz. Bilim va ma‘naviyat mustahkam bo‘lsa, iqtisodiyot ham yaxshi rivojlanadi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident mahalladagi 150 o‘rinli, zamonaviy sharoitlar yaratilgan xususiy bog‘cha faoliyati bilan ham tanishdi. U joriy yilda foydalanishga topshirilgan 16 qavatli uyning birinchi-ikkinci qavatida joylashgan. Muassasa xonalarini jihozlashda zamonaviylik va milliylik uyg‘unlashuviga alohida e‘tibor qaratilgan.

Mahallada yosh bolali ayollar ko‘p. Ular uchun shu yerga yaqin joylarda tikuvchilik, qandolatchilik kabi yo‘nalishlarda ish o‘rinlari yaratilmoqda. Mazkur bog‘cha ular uchun ancha qulay bo‘ladi. Ko‘ngli xotirjam ish bilan band bo‘ladi, oilasiga qo‘shimcha daromad keltiradi.

Mamlakatimizda muhim dasturlar aynan mahallalarda amalga oshirilayotgani, tizimga katta vakolat va imkoniyatlar berilayotgani ta‘kidlandi. Bu ishlar ulardagi obodlik, aholi farovonligida ifodasini topayotgani qayd etildi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘zA muxbirlari



Xalqimiz tabiatni “ona” deydi, yerni, suvni e‘zozlaydi. Buning zamiridagi haqiqat hozirgi ekologik muammolar ta‘sirida yaqqol namoyon bo‘lyapti. Shuning uchun “Yashil makon” loyihasini boshladik. Kelgusi yil nomini ham atrof-muhitni asrash masalasiga bag‘ishladik. Endi bu tashabbuslar keng yoyilishi, ayniqsa, yoshlarimizga chuqur singishi zarur. Har bir xonadon, har bir korxonada tabiatni asrashga hissa qo‘shishi kerak.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

TABIATNI ASRASH —
INSONNI ASRASH
DEMAKDIR

2

IJTIMOIY HIMOYANING
YANGI TIZIMI

3

ENERGIYA
ISROFIDAN

4

UCHQUNLANAYOTGAN UMIDLAR RO‘YOBI

QAYTAYLIK, QAYTARAYLIK!

2024-yil 24-noyabr, 239-son



Kambag'allikdan farovonlik sari

KEKSALAR O'GITI YOSHLARNI HALOL MEHNATGA O'RGATADI

Mahalladagi yoshlar yetakchisi uy yumushlari bilan band bo'lgan Sharifjoniga ertaga mahalla fuqarolar yig'iniga borishni tayinlab ketdi. Yigit kechqurun ishdan kelgan otasiga buni aytdi, ammo nima masalada chaqirilganini so'rab qolmagan yodiga tushib, bir oz kalovlandi. — Yaxshi, chiqib kelaver. Uydak bekor o'tirgan bo'lsang. Balki biror yumushga ko'mak so'rashar, — dedi otasi gapni qisqartirib.



Haqiqatan, Sharifjon bir-ikki yildan buyon oliy o'quv yurtiga kirishga tayyorlanib, imtihondan o'tolmagan uchun uy yumushlari va mavsumiy ishlar bilan band bo'lar, gohida uydak bekor bo'lgan kezlari mahalla yumushlariga qarashib turardi. U hanuzgacha biror ishning boshini tutmagan. O'qishga

kirsa, biror sohada ishlab ketar, degan o'yda ota-onasi ham imtihonlarga tayyorlanishi uchun Sharifjoniga sharoit yaratib bergan edi. Nurota tumanining Mustaqillik mahallasi etralabdan yoshlar bilan javjum. Mahallaning Sharifjonning boshqa yoshlari ham yig'ilgan. Shu kuni mahalla nuroniylari ishsiz yoshlar

bilan uchrashdi. Muloqotda yoshlar keksalardan o'zlarini qiziqirgan savollarga javob oldi.

Nurota tumanidagi Mustaqillik mahallasida "Keksalar maslahati guruhi" a'zosi, hunarmand Nayim Po'latovni nafaqat tumanda, balki viloyatda ham ko'pchilik taniydi. Bir oyda o'rtacha 30 ta tandir yasaydi va bu kamida 7-8 million so'm daromad, degani. Qolaversa, usta mahallasidagi ishsiz 4 yoshga hunarini o'rgatmoqda. Ular orasida Sharifjon ham bor. Hozir yigit mustaqil tandir yasamoqda.

Farovon turmush va oila xotirjamligini ta'minlashga yo'naltirilgan bugungi islohotlarni hayotga tatbiq etishda nuroniylarning hayotga o'z o'rnini bor. Ayniqsa, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirishda otaxonu onaxonlar mutasaddilar va "mahalla yetitiligi"ga yaqin ko'makchi bo'lmoqda.

Bugungi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishda nuroniylar faol ishtirok etayotir. Mahallalarda faoliyat yuritayotgan "Keksalar maslahat guruhi", "Buvijonlar maktabi" yoshlarning hayotda to'g'ri yo'l topishi, ilmi, kasb-hunarli bo'lishida muhim o'rin tutmoqda. Ayniqsa, "Bir nuroniy — o'n yoshga mas'ul" tamoyili nihoyatda uzoqni ko'zlagan ezgu g'oya. Shu asosida tumanimizdagi nuroniylar mahalladagi yoshlarning bandligini ta'minlashga hissa qo'shmoqda. — deydi "Nuroniy" jamg'armasi Nurota tumani bo'limi raisi Suyundiq Qulmanov.

Ayni paytda nuroniylar mahallalarda uyma-uy yurib, aholi bilan suhbatlashib, oilalarning kambag'allikka tushib qolish sababini o'rganyapti. Shuningdek, tomorqadan samarali foydalanish, uy-joyni

mutasaddilarga maslahat va tavsiyalari bilan yaqindan ko'mak bermoqda. Ularning bu ezgu ishlariga hudud tadbirkorlari kamarbasta bo'lmoqda. Jumladan, Saroy mahallasida joylashgan ushlab chiqarish korxonasida bugun 500 dan ortiq fuqaro mehnat qiladi. Ayni vaqtda yer yerdan yana qo'shimcha ishlab chiqarish zavodi qurilmoqda. Turkiya texnologiyasi asosida ushlab chiqarish yo'lga qo'yilgach, qo'shimcha 70 ta yangi ish o'rnini ochiladi. Navbahorlik nuroniylar tadbirkorlar bilan uchrashib, yangi ish o'rinlariga, asosan, ehtiyojmand oilalar a'zolarini ishga qabul qilish bo'yicha tavsiya bermoqda.

Navbahor tumanida qishloq xo'jaligi rivojlangan. Aholi tomorqasidan samarali foydalanib, yaxshi daromad olish bo'yicha boshqa hududlarga namuna. Dehqonchilik bo'yicha ko'p yillik tajribaga ega nuroniylar hozir ekin ekish va yaxshi hosil olish sirlarini ehtiyojmand oilalar vakillariga o'rgatib, ularni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha yaqindan yordam bermoqda.

Bir gektar yerga anor ekib, yiliga 100 million so'mdan ortiq daromad topayotgan Muhabbat G'ofurova Armijon mahallasidagi "Buvijonlar maktabi" faol a'zosi. Onaxonning hayot yo'li ham ko'pchilikka namuna. Anorchilikda to'plagan boy tajribasi qo'ni-qo'shnilarga qo'l kelmoqda. Bilmaganini onaxonning o'rganib, yaxshi ham olishmoqda. Shunday nuroniylar tufayli hozir anorchilik Armijon mahallasining drayveriga aylangan.

Anorchilik bilan shug'ullana boshlaganimga yigirma yildan oshdi. Yaxshi daromad tufayli farzandlarimni o'qitdik,

uyli-joyli qildik. Mahallamiz yoshlari, qo'ni-qo'shnilar maslahat so'rab keladi. Ularga bajioldil anorchilik sirlarini o'rgataman. Hozir "Buvijonlar maktabi" a'zosi sifatida mahallamizdagi ishsiz fuqarolar bandligini ta'minlashga yordam beryapmiz. Mehnat qilsa, kam bo'lmagiligi uqtirib, dunyovarashini o'zgartirishga intilyapmiz. Sidqidildan harakat qilsa, kelgusida doimiy daromadga ega bo'lishini tushuntiryapmiz, — deydi Muhabbat G'ofurova.

Qiziltepa tumanidagi nuroniylar ham faol. Mahallalarda ishsiz fuqarolar va yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazib, ularning qiziqishi, kasb-hunarga yaqinligini o'rganmoqda. Tadbirkorlik qilish istagidagilarning imtiyozli kredit olishida ko'maklashmoqda. Biznes rejalari tashabbuslarni amalga oshirishda maslahatlar bermoqda. Ayollarning tikuvchilik, hunarmandlik va boshqa sohalarida mehnat qilishi uchun sharoit yaratilishiga bosh-qosh bo'lmoqda. Shu bilan birga, tomorqadan samarali foydalanish, asalarichilik, chorvachilik, parrandachilik va boshqa yo'nalishtirish bilan shug'ullanib, doimiy daromad olish imkonligini aniq va hayotiy misollar bilan tushuntirib bermoqda.

Jarayonlarda nuroniylarning faol ishtirok etayotgan kambag'allikka tushib qolgan ishsiz fuqarolarning dunyovarashini o'zgarishi, bilim olib, kasb-hunar o'rganishi va doimiy daromadga ega bo'lishida muhim o'rin tutmoqda. Zero, keksalarning hayot yo'li, turli sohalarida orttirgan boy tajribasi bugungi avlodlar uchun ibrat maktabidir.



G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

2025-YIL - ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

TABIATNI ASRASH — INSONNI ASRASH — DEMAKDIR

"Biz tabiat haqida so'z yuritganda, ko'pincha "ona tabiat" degan iborani ishlatamiz. O'ylaymanki, bu shunchaki chiroqli, shoirona so'z emas, balki uning zamirida chuqur hayotiy haqiqat bor. Biz mo'tabar ona zotini qanday yuksak hurmat-ehtirom qilsak, o'zimizni qurshab turgan tabiatga ham shunday munosabatda bo'lishimiz zarur. Zero, tabiatni asrash — insonni asrash demakdir".

Prezidentimizning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqishga bag'ishlangan majlisidagi nutqidan olingan bu iqtibos, o'ylaymanki, xalqimizning dilidagi gaplar. Chunki ko'plab mamlakatlar iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini yaqqol his qilmoqda. Havo va suvning ifloslanishi, cho'llanish, global isish, tabiiy ofatlar ko'payishi atrof-muhit va aholi sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazmoqda. Shu bois, davlatimiz rahbari 2025-yilni yurtimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb nomlashni taklifladi.

Tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlardan yildan yilga tobora murakkablashib bermoqda. Sayyoramizda avj olayotgan ziddiyat va qarama-qarshiliklar tufayli yangidan yangi xavf-xatarlar yuzaga kelmoqda. Murakkab geosiyosiy vaziyat, energiya va suv resurslari taqchilligi, turli epidemiyalar va tabiiy ofatlar, iqtisodiy-jitimoiy hayotdagi keskin o'zgarishlar odamzodni innovatsion yechimlar izlash, kreativ yondashuvlar topish, oqilona chora-tadbirlar ishlab chiqishga undayapti.

darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolari yanada chuqurlashtiryapti. Oqibatda "yashil" taraqqiyot va "yashil" iqtisodiyotga o'tish zarurati haqida bong urilmoqda. Aslida, muammoni yechishning bundan boshqa samarali chorasi ham yo'q.

Joriy yil 12-13-noyabr kunlari Boku shahrida bo'lib o'tgan BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29) doirasida o'tkazilgan Iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish sohasidagi harakatlar bo'yicha jahon sammiti ham muammo ko'lamini kengaytib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bois, "yashil" iqtisodiyotga o'tish va uglerod neytralligiga erishish yangi O'zbekistonning ustuvor strategik vazifasi sifatida belgilab olingan. Boz ustiga O'zbekiston o'z zimmasiga atmosferaga zararli chiqindirlar chiqarishni kamaytirish bo'yicha majburiyatlar olgan. Gap shundaki, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq o'sib borayotgan global tahdidlarga kompleks javob qaytarish maqsadida 2015-yil 12-dekabrda Parij bitimi qabul qilingan edi. Ushbu hujjat 2016-yil 4-noyabrda kuchga kirgan. Bitimning maqsadi BMT Iqlim o'zgarishlari bo'yicha doiraviy konvensiyasi amalga oshirilishini faollashtirish, global o'rtacha haroratning selsiy bo'yicha 1,5 darajagacha o'sishini cheklashga erishishdan iborat. Bu 2050-yilga borib, issiqxona gazi global ajratmasini 40-70 foiz kamaytirishni va 2100-yilga borib, uni 0 yoki manfiy ko'rsatkichga yetkazishni talab etadi.

Shu bois, "yashil" iqtisodiyotga o'tish va uglerod neytralligiga erishish yangi O'zbekistonning ustuvor strategik vazifasi sifatida belgilangan. Davlatimiz rahbarining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e'tiborni kuchaytirish masalalari belgilangan iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish uchun xizmat qilmoqda.

ijohatlariga to'xtalib o'tdi. Xususan, yurtimizda "yashil" energetikani jadal rivojlantirish bo'yicha katta dastur qabul qilingan bo'lib, har yili 2 gigavattga yaqin quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilmoqda. Bundan tashqari, joriy yil oxirigacha tarmoqqa qo'shimcha 2,6 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish quvvati va 300 megavattli energiya saqlash tizimi ulanadi. 2030-yilga borib, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 40 foizga yetkazish, shuningdek, 4,2 gigavattli energiya saqlash tizimini yaratish rejalashtirilgan. Buning natijasida o'n minglab yangi ish o'rnini ochiladi. Energetika infratuzilmasi rivojlanadi, texnologik va ishlabaruvchi aloqalari kengayadi. Aholi farovonligi oshadi. Iqlim yaxshilanishiga munosib ulush bo'lib qo'shiladi.

Insaniyat qayta tiklanmaydigan, havoga zararli chiqindirlarni ko'p chiqaradigan energiya resurslariga ruju qo'yg'an. Buning oqibatida oxirgi 20-yilda 4,5 milliardga yaqin odam yirik tabiiy ofat ko'rinishidagi iqlim o'zgarishi ta'siridan aziyat chekdi, 1,2 million kishi halok bo'ldi, iqtisodiy zarar esa qariyb 3 trillion dollarni tashkil etdi.

Mutaxassislar fikricha, Markaziy Osiyo mamlakatlari geografik joylashuviga ko'ra, iqlim keltirib chiqaradigan oqibatlariga ko'proq moyil. Bugun Markaziy Osiyo mamlakatlari iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bir qancha salbiy oqibatlarni allaqachon boshdan kechirmoqda. Masalan, muzliklar maydoni qisqarishi tufayli oxirgi 50-60 yilda mintaqadagi muzliklar maydoni 30 foiz kamaydi. Haroratning 2 darajaga ko'tarilishi muzliklar maydonining 1,5 barobar, 4 darajaga ko'tarilishi 80 foiz qisqarishiga olib kelishi mumkin. Suv resurslari yetishmasligi ham eng yirik muammolardan.

Farazlarga ko'ra, 2050-yilga borib, suv resurslari Sirdaryoda 5 foiz, Amudaryo 15 foizgacha qisqaradi. Yer degradatsiyasi va cho'llanish ham katta muammolardan. Mana shularni inobatga olib, davlatimiz rahbari Boku sammitida qator tashabbuslarni ilgari surdi. Iqlim tufayli yo'qotish va zararlarni baholash bo'yicha xalqaro markaz ta'sis etish, BMT shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha majburiyatlar to'g'risidagi deklaratsiyani ishlab chiqish, dengizga chiqish imkonini bo'lmagan davlatlar uchun yurtimizda BMTning innovatsion agrosanoat xabini yaratish, iqlim o'zgarishidan zarar ko'rayotgan megapolis va shaharlar barqaror rivojlanishi bo'yicha ilg'or bilim va amaliyotlar transferi uchun Jahon iqlim poytaxtlari alyansini tashkil etish va uning birinchi forumini Toshkentda o'tkazish taklifi shular jumlasidan.

Prezidentimizning COP29 anjumanida ilgari surgan taklif va tashabbuslari "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan ekologik vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha vazifalar bilan hamohang ekanini ta'kidlash joiz. Strategiyadagi vazifalarga ko'ra, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 444 ta yashil bog' barpo etiladi. Buning uchun barcha davlat idoralari, korxonalar, ta'lim muassasalari hududida yashil bog'lar tashkil qilindi. Ayniqsa, yirik sanoat korxonalari bo'rona alohida jonbozlik ko'rsatishi nazarda tutilgan. O'rmonlar maydonini kengaytirish borasida ham vazifalar belgilangan. Xususan, mamlakatning o'rmon bilan qoplanganlik darajasini 8,1 foizga, Oro'lbo'y hududidagi o'rmonlarni 1,9 million gektarga yetkazish, Orol dengizining qirg'in tubida qo'shimcha 200 ming gektar yashil maydon barpo etish vazifalari qayd etilgan. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirining oldini olish maqsadida cho'llanish, qurg'oqchilik, chang-quyuq bo'roni va harorat o'rmoni barpo etiladi. Bu esa, o'z navbatida, turli chang-to'zon ko'tarilishiga qarshi turishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boku sammitida ilgari surilgan taklif va tashabbuslar O'zbekistonning iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha jahon hamjamiyati bilan hamkorlik qilishga va o'zaro sa'y-harakatlarni birlashtirishga tayyorligini namoyon etadi. Ayni vaqtda nafaqat mamlakatimiz va mintaqamiz, balki butun dunyoda global xarakterdagi ekologik muammolarni birlashtirib, ekologik xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish imkonini beradi.

Munisxon ISOQULOVA, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi doktroni

8-DEKABR — O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

QONUNCHILIKNI JAHON STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH BORASIDA KENG KO'LAMLI ISLOHOTLAR

Otabek NORBOYEV, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi bo'lim boshlig'i

Yurtimizda inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash, milliy qonunchilikni jahon standartlariga moslashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirga qadar O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjat, xususan, BMT tomonidan inson huquqlari bo'yicha qabul qilingan 10 ta majburiy xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilib, ular bo'yicha belgilangan majburiyatlarini bajarib kelmoqda.

Bu borada joriy yilda yana bir muhim yangilik yuz berdi. Ilk bor inson huquqlarini himoya qilish, inson huquqlari buzilishi bilan bog'liq holatlarni ko'rib chiqish va tavsiyalar berish uchun mas'ul organ hisoblangan BMT Inson huquqlari qo'mitasi a'zolariga O'zbekiston vakili saylandi.

Inson huquqlari ustuvor bo'lgan va qadrlangan davlatlarda ularni himoya qilish mexanizmlari muntazam takomillashtirib boriladi. Bu borada jamiyatimizdagi milliy institutlarning o'rni beqiyos. Keyingi yillarda ular



faoliyatini qo'llab-quvvatlash, qonunchilik asoslarini takomillashtirish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Shu o'rinda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Asosiy qonunimizning 56-moddasiga ko'ra, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to'ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashadi. Davlat inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Ushbu normalar misolida inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarga konstitutsiyaviy maqom berildi va bu bejiz emas. Chunki fuqaroning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash faqat huquqni muhofaza qilish organlari yoki tegishli sudlar orqali emas, balki inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar ko'magida ham amalga oshiriladi.

O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tizimi tarkibiga Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) va Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani), Prezident huzuridagi tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi kiradi. Ular faoliyatini inson huquqlari bo'yicha xalqaro andozalar va ilg'or xorijiy tajriba asosida tashkil etilgan hamda muttasil takomillashtirib borilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 40-moddasi, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi qonun talablari va O'zbekiston Prezidentining 2018-yil 10-dekabrda qabul qilingan vakolatlar doirasida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash yo'lga qo'yilgan.

Tahlillarga ko'ra, 2024-yilning 10 oyida markazga jami 1256 ta murojaat kelib tushgan. Ularning 1222 tasi taalluqliligi bo'yicha ko'rib chiqish uchun tegishli idoralarga yuborilgan.

Monitoring natijalari tahlil davrida kelib tushgan murojaatlarning aksariyati o'tgan yillardagi kabi odil sudlovni amalga oshirish, sud qarorlaridan, dastlabki tergov harakatlari hamda ularni yuritgan mas'ul shaxslarga oid. Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati idoralari qaroridan norozilik, yer ajratish, shaxsiy mulk



“**Milliy markaz tomonidan turli davlat idoralari va huquqni muhofaza qilish organlariga joriy yilning 10 oyi davomida yuborilgan 380 dan ortiq tavsiya ko'rib chiqilishi natijasida 26 ta murojaat yuzasidan fuqarolarning huquqlari tiklandi.**”

va uy-joyga bo'lgan huquqlarga doir ekanini ko'rsatdi.

Milliy markaz tomonidan turli davlat idoralari va huquqni muhofaza qilish organlariga joriy yilning 10 oyi davomida yuborilgan 380 dan ortiq tavsiya ko'rib chiqilishi natijasida 26 ta murojaat yuzasidan fuqarolarning huquqlari tiklandi. 46 holatda fuqarolarga huquqlari tiklanishi va qonuniy manfaatlari ta'minlanishida ko'maklashildi, 188 holatda esa fuqarolarga qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha tegishli huquqiy tushuntirish berildi.

Natijada 1 fuqaro oqlandi, 1 nafari qamoqdan ozod etildi va jazosi yengillashtirildi. Noqonuniy ishdan bo'shatilgan 4 kishi ishiga tiklandi. Bundan tashqari,

1 mansabdor shaxs intizomiy, 2 shaxs jinoyi javobgarlikka tortildi.

Sudlarda inson huquq va erkinliklari ta'minlanishini kuzatish maqsadida jami 12 ta sud jarayonida Milliy markaz vakili ishtirok etdi. Telefon qo'ng'iroqlari orqali murojaat qilgan 2800 nafardan ziyod fuqaroga huquqiy maslahat berildi.

Ba'zan bir insonning buzilgan huquqini tiklash uchun bir necha yil talab etilmoqda. Ya'ni Milliy markaz tomonidan ko'rib chiqilgan ayrim murojaatlar bo'yicha unda ko'tarilgan masalani qonuniy hal qilish vakolatiga ega bo'lgan davlat organiga kiritilgan tavsiya va xulosalar yuzasidan bir necha yillardan so'ng ijobiy qarorlar qabul qilinmoqda.

Milliy markaz kiritgan tavsiyalarga binoan fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari ham tiklanmoqda. Bu jarayonda bir qancha holatda murojaat egalari 800 million so'mga yaqin moddiy zarar undirib berildi.

Fuqarolarga “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi qonun mazmuni-mohiyatini tushuntirish borasida joylarda ochiq muloqotlar o'tkazilmoqda. Xususan, Toshkent viloyatining Ohangaron tumanida va Sirdaryo viloyatining Xovos tumanida shunday huquqiy-ma'rifiy uchrashuvlar tashkil etildi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash borasida samarali ishlarni bajarmoqda. Inson huquqlari bo'yicha milliy institut sifatidagi konstitutsiyaviy maqomiga qat'iy amal qilmoqda.



IJTIMOY HIMOYANING YANGI TIZIMI

UCHQUNLANAYOTGAN UMIDLAR RO'YOBI

Bir oilada uch farzandan birining imkoniyati cheklangan. Xalqimiz ta'biri bilan aytganda, bunday vaziyatda onaning “ikki qo'li ham bog'lanadi”. Ya'ni ishlash uchun imkoniyati bo'lmaydi. Bor kuchi va mehri bilan farzandlari, ayniqsa, imkoniyati cheklangan dilbandi parvarishiga e'tibor qaratadi. Oiladagi bunday muhitdan ko'ngli notinch ota ham biror joyda xotirjam ishlash olmaydi. Tabiiyki, bu holat oilani muhtojlik yuqosiga olib keladi. “Qo'ldan berganga qush to'yamas”, deganlaridek, ahyon-ahyonda beriladigan nafaqa puli yoki yaqinlarning ko'magi bilan oilani oyoqqa turg'azish mushkul.

Bunday vaziyatda maxsus yondashuv asosida oila ahvoli chuqur o'rganilib, kambag'allikdan chiqarish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ko'rilishi nafaqat oila, balki butun jamiyat hayotida o'ziga xos o'zgarishlarga xizmat qiladi. Zero, ko'makka muhtoj bir oilaning hayoti o'nglanishi shu oila a'zolariga emas, ularning yaqinlari, qo'ni-qo'shnilar, qolaversa, mahalladoshlar ruhiyatiga ham ko'tarinkilik baxsh etadi. Bunday o'zgarishlardan xabarador har bir inson yurtimizda hech kim o'z muammosi bilan yolg'iz qolmayotganiga yaqqol ishonch hosil qiladi. Bu tuyg'u har bir kishida hayotga muhabbat va intilishni kuchaytiradi, yaratuvchilikka, o'zaro mehr-oqibatga undaydi.

Yangi O'zbekistonning inson qadrini ulug'lash, huquq va manfaatlarini himoyalashga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya tizimi ana shunday ezgu tamoyillarga asoslangan. Aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lami va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar bajarilmoqda. Jumladan, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajati YIMga nisbatan 2 barobar oshib, kam ta'minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 karra ko'paydi. Nogironligi bo'lgan shaxslar va bolalar parvarishi bilan band bo'lganlar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy ehtiyojmand boshqa toifalari huquqlari davlat himoyasida bo'lishi qayd etildi. Xususan, Konstitutsiyamizning 1-moddasida O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanini belgilandi. Shunga muvofiq, 2023-yil 1-iyunda aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish bo'yicha farmon qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni aniqlash tartibi va ular bilan ishlash tizimi o'zgardi. Qabul qilinayotgan turli dasturlar, manzilli ijtimoiy xizmatlarni samarali amalga oshirish va bu jarayonni boshqarish uchun key-menejment usulini joriy qilish ehtiyojmand aholining hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qilmoqda. Ushbu usul har bir inson yoki oila holatini alohida tahlil qilib, ehtiyojiga mos yordam ko'rsatish imkoniyatini yaratdi.

Shunday xizmatlar ko'rsatilgan yuqorida aytilgan oilaning ham hayotini tubdan o'zgartirdi. Avvalo, nogironligi bor farzandga aravacha olib berildi. Endi u tengdoshlari qatori maktabga borib, ta'lim olish imkoniga ega bo'ldi. Ota kumbaray haydovchisi bo'lib ish boshladi, daromadi chakkani emas. Ona o'n yillik tanaffusdan so'ng o'z kasbi — o'qituvchilikka qaytdi. Oila ahli tomoqadan ham mo'may daromad olishga harakat qilyapti. Shu taxlit oila doimiy daromad manbaiga ega bo'ldi. Bu esa xonadon ahlining hayotini butkul o'zgartirdi. Ayniqsa, ota-

onaning quvonchi cheksiz. Ular, avvalo, nogironligi bor dilbandi tengdoshlari bilan bir safda ta'lim olayotganidan quvonchini yashira olmaydi. Endilikda ijtimoiy himoya tizimi yanada takomillashadi. Bu haqda Prezidentimiz yaqinda bo'lib o'tgan Oliy Majlis Senatining birinchi yig'ilishida so'zlagan nutqida alohida to'xtalib, kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida kelgusi yil budjetdan 500 milliard so'm yo'naltirilishini ta'kidladi. Shuningdek, yangi yildan 65 turdagi ijtimoiy xizmat va yordamlar, 50 ga yaqin imtiyozlarni o'zida mujassam etadigan yagona “Ijtimoiy karta” tizimi yo'lga qo'yiladi.

Daromadi va sog'lig'ini yo'qotib, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan yurtdoshlarimizni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida qonunchiligimiz yanada takomillashtiriladi. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim maktablariga qatnashi uchun to'siqsiz muhit va zarur sharoit yaratiladi, maxsus pedagog va psixologlar jalb qilinadi.

O'z navbatida, yangilanayotgan ijtimoiy himoya tizimi imkoniyatlaridan bahramand bo'layotgan oilalar ham ko'payib borayotir. Nurotalik Jaloliddin Sohibov shulardan biri. Avtohalokat tufayli to'shakka mixlanib qolgan bu insonga ko'mak berish maqsadida ijtimoiy xodim tomonidan oila individual yondashuv asosida kompleks baholalanib, qator ijtimoiy xizmatlar ko'rsatildi. Jumladan, reabilitatsiya texnik vositasi bilan ta'minlandi. Sog'lig'ini yaxshilashi uchun viloyat nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markaziga yo'llanma berildi.

Kam ta'minlangan oilani kambag'allikdan chiqarish maqsadida mahalladagi hokim yordamchisi bilan hamkorlikda subsidiya asosida elektr skuter olib berildi. Albatta, ijtimoiy himoya tizimining ushbu ko'magi besamar ketmadi. Jaloliddin Sohibov hozir turmush o'trog'i bilan birga ko'chma oziq-ovqat do'konini ochib, elga xizmat qilyapti. Asosiyi, oilaning daromadi oshib, faoliyatini kengaytirishni maqsad qilgan.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma'lumotiga ko'ra, hozir mamlakatimiz bo'yab “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida aholining ehtiyojmand qatlamini og'ir ijtimoiy vaziyatdan olib chiqish uchun chora-tadbirlar ko'rib kelinmoqda. Jondor tumani Romish mahallasida yashovchi Lola Bo'riyevaning turmush tarzi ham xuddi shu dastur sabab bugun boshqacha tuza oldi.

Lola Bo'riyeva turmush o'trog'idan erta ayrilgan. O'sha vaqtda kichkina o'g'li besh oylik edi. U hozir 4 yoshga to'ldi. O'tgan yillar yosh ona uchun katta sinov davri bo'ldi. Ikki farzandi bilan ayriqlik yukini ko'tarish barobarida, oila tebratish, farzandlarini boqish, tarbiyalash uchun olg'a intilmog'i zarur edi. Bugun Lola turmush o'trog'ining ishini davom ettirib, avtomashina shinasini tuzatish bilan shug'ullanayapti. Bu ishni risoladagidek bajarishi uchun xonadonda

elektr energiyasi quvvati kamligi qiyinchilik tug'dirardi. “Mahalla yettligi”, ijtimoiy xodim xonadonga kelib sharoitini o'rgangach, bir necha ijtimoiy xizmatlar ko'rsatildi. Xususan, xonadondagi elektr energiyasi quvvati oshirib berilgach, faoliyatni risoladagidek davom ettirish imkoni vujudga keldi.

Bundan tashqari, bir sotix yerga issiqxona qurib berildi. Hozir u yerda ko'kat yetishtirilyapti. Oilaga ko'mak bo'lsin, deya olib berilgan sigir suti bolalarga ozuqa bo'lmoqda. Uy bekasi ortib qolgan sutni sotaypti. “Mahalla yettligi” ko'magi bilan olib berilgan parrandalar ham tuxumga kirib, ro'zg'or barakasiga hissa qo'shaypti.

Lola Bo'riyeva bu imkoniyat va imtiyozlardan juda mamnun. Bunga javoban ikki farzandini o'qitib, yaxshi mutaxassis qilish hamda ehtiyojmandlarga yordam beradigan saxovatli insonlar etib tarbiyalashni ko'ngliga tukkan.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida bu jabhadagi ezgu ishlar ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq muhim vazifalar belgilangan. Xususan, muhtojlarni ijtimoiy himoya bilan to'liq qamrab olish, nogironligi bor shaxslarga sifatli va zamonaviy protez-ortopediya buyumlarini yetkazib berish ko'zda tutilgan.


Prezidentimizning shu yil 27-fevraldagi “Muhtoj shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bu borada muhim asos bo'ldi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma'lumotiga ko'ra, muhtoj shaxslar uchun protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya vositalarini vaucher asosida elektron tijorat orqali olish tizimi yo'lga qo'yilgan. Ushbu tizim muvaffaqiyatli tajribadan o'tgach, yurtimizning barcha hududida amal qilmoqda. Shu kunlarda agentlik tomonidan muhtojlikni aniqlash ishlari yanada faollashdi.

Protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya vositalari nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xulosasi asosida, pensiya yoshidagi nogironligi bo'lgan shaxslarga vrachlik maslahat komissiyasining tibbiy xulosasi asosida bepul taqdim etiladi. Buning uchun fuqarolar o'zi yashayotgan tuman (shahar)dagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markaziga yoki mahallasidagi ijtimoiy xodimga murojaat qilishi mumkin. Bundan tashqari, qo'shimcha ma'lumot uchun agentlikning 1140 qisqa raqamiga, qolaversa, uydan chiqmasdan turib, my.ihma.uz elektron platformasi orqali ham zarur vositalarga buyurtma bersa bo'ladi.

Prezidentimiz ijtimoiy himoyaning yangicha tizimi haqida to'xtalar ekan, “Jamiyatimizda ijtimoiy adolat va inson qadrini ta'minlaymiz desak, bu yangi tizimni joylarda samarali ishlatib, muhtoj insonlarga madad va umid bag'ishlashimiz kerak”, degan edi.

Bugun mahallalardagi hayotbaxsh islohotlar yuzlab muhtojlarga qanot bag'ishlayotgani, natijada jamiyatimizda shukrona, mehr-oqibat, bag'rikenglik muhiti tobora mustahkamlanayotgani ushbu ezgu niyatlar ro'yogba chiqayotganidan dalolat. Bu o'zgarishlar har birimizning qalbimizda ona vatanimizdan faxrlanish hissini yuksaltiradi, yurt taqdiri va kelajagiga daxidorlik tuyg'usini kuchaytiradi.

Bahor XIDIROVA, “Yangi O'zbekiston” muxbiri



Mulohaza

ENERGIYA ISROFIDAN

QAYTAYLIK, QAYTARAYLIK!

Daryo bo'yida yashasang ham suvni isrof qilma, degan bobomomolarimiz. Axir tabiiy boyliklar har qancha ko'p ko'rinasin, cheklangan resurs. Tasavvur qilyapsizmi, ular bir kuni nihoyatda kamayib ketishi, hatto tugashi mumkin. Shunda sahar turib, litrlab suvga yuvinishu ichimlik suvni tomorqamizga behuda oqizib qo'yishimiz barham topadi. Ayvoniimizda kecha-yu kunduz yoniq turadigan, o'chirish hech kimning xayoliga kelmaydigan chiroqni ham belgilangan muddatdagina yoqishga majbur bo'lamiz. Avtomobilimizni ichimlik suv bilan yuva olmaymiz. Nega shunday? Chunki vaziyatni o'zimiz shu tomon olib boryapmiz!

Davlatimiz rahbari joriy yil 4-noyabr kuni elektr energetikasi sohasini transformatsiya qilish, hududlardagi elektr tarmoqlari boshqaruviga xususiy operatorlarni jalb etish masalalarini bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Unda 2025-yil energetika korxonalarini uchun tejamkorlik va samaradotlik yili bo'lishi ta'kidlandi. Aytishicha, har bir energetika korxonasining birinchi galdagi vazifasi tanvarxni kamaytirish bo'lishi kerak.

Bu, shubhasiz, iste'molchilar uchun katta yengillik yaratadi. Energiya manbalari uchun sarflayotgan xarajatlari sezilarli kamayishiga olib keladi. Ba'zan arzon narsaning qadri o'zidan-da arzon hisoblaymiz. Uning arzonligi nimaning evaziga ekanini har doim ham ta'akkur tarozisiga qo'yib ko'rmaymiz.

Bir gal Yevropa mamlakatlarida qishloq xo'jaligi bo'yicha mavsumiy mehnat qilib qaytgan yurtidoshimiz bilan suhbatlashib qoldik. U o'sha yerda sug'orish suvi ham pulli ekanini, elektr energiyasi esa bizdagidan ko'ra ancha qimmatligini aytdi. Sug'orish suvi ham pulga sotib olinishini eshitib hayron qoldim. U qishloqlarimizda daryoyu kanallar orqali beminat oqib keladigan, tomorqalarga istagan paytimiz so'roq-savolsiz oqizib qo'yiladigan suv haqida gapiryaptimi? Nahotki, uning qaysidir mamlakatlarda qadri bo'lsa, kamiga pul ham to'lansa!



Har qadamda tabiiy resurslar isrofiga guvoh, buni odatiy hol deb hisoblab yashayotgan kamina uchun bu muldago yangilik bo'ldi, ochig'i. Kundalik ishlatadiganimiz "suv tekini" iborasini ham biz o'yab topgan bo'lsak kerak atidan.

Endi yana elektr energetikasi mavzusiga qaytsak. Mamlakatimizda elektr sotiladi. Shunga qaramay, hanuz uni yalpi tejash

madaniyatini o'zlashtirib ulguranimiz yo'q. Sababi aksariyatimiz uni ortiqcha sarflab yuborsak ham qiymatini qoplashga qurbimiz yetadi deb hisoblaymiz, xavotir olmaymiz. Lekin dunyoning qayerlaridagi to'lashga puli bor, ammo elektrdan nihoyatda tejab foydalanishga majbur bo'layotgan millionlab insonlar mavjudligi haqida o'yab ko'ramizmi? Poytaxtdagi ko'p qavatli uylardan birida

yashayman. Ba'zan qoq yarim tunda derazadan qaralsa, tepa qavat bo'lgani sabab nisbatan keng yashash hududlari ko'rinib turadi. Ayniqsa, hovlilardan iborat mahallalarda ko'cha chiroqlari umuman o'chirilmaydi. Axir qoq yarim tun bo'lsa, aholining asosiy qismi allaqachon ishdan qaytishga ulgurani aniq, nima hojat ekan deb o'ylayman. Aslida, ko'p qavatli uylarda ham ahvol shu — kirish chiroqlari, har bir qavatdagi alohida chiroqlar deyarli o'chmaydi, uzluksiz "ishlaydi". Bir safar hamqavat qo'shimizga shu chiroqlarni hech bo'lmasa kunduzi o'chirib qo'yishsa bo'lmasikan, behuda isrof bo'lib yotibdi, deganida: "Indamang, ukajon, siz bilan mening cho'ntagimdan ketyaptimi, hammasini "JEK" to'laydi, pulini qurutek sanab olayotgan bo'lsa. Aksincha, chiroq yoniq tursa, qavat fayzliroq bo'lib turadi", deb javob bergandi. Men esa "Nahotki, isrofdan fayz bo'lsa", deb bir muddat o'ylanib qolgandim.

Qo'shimizning bunday tushunchasi, aslida, juda ko'pchiligimizga xos. Tunda atrofini yoritib qo'yish ham biz so'nggi asrda orttirgan "odat"larimizdan. Bu ham yetmagandek, ko'p qavatli uyda yashovchilar orasida uydan chiqq turib, ostona chirog'ini ataylab yoniq qoldirib ketadiganlari ham ko'p uchratganman.

Rahmatli bobom nihoyatda tejamkor odam edi. Kasbi — fermer, yerining asosiy qismini yer osti suvi bilan sug'orardi. Ishchilarining yur motorini sababsiz qo'shib qo'yganini ko'rib qolsa, qattiq koyirdi. Hatto farzandlarini-da ayab o'tirmaganiga ko'p marta guvoh bo'lganman. Lekin nima sababdan bunalik tejamkorligi haqida hech qachon gapirmasdi. Xuddi men tejasam, elektr yanada ko'proq odamga yetib borishi mumkin, degan tushuncha bobomda tabiiy bo'lgan deb o'ylayman endi.

Elektr behuda isrof bo'layotganini ko'rsam, ba'zan bobom esimga tushadi — qaniydi tirik bo'lsa-yu, shulami bir koyib bersa, deymen. Aslida, jamiyatimizga bobom singari odamlar kerak. Sababi kelajak o'tmishdan tarbiya oladi. Bugun negadir yo nasihatgo'y bobo-momolar kamayib ketdi yoki yosh avlod kattalarga umumun quloq solmay qo'ydi. Nima bo'lgan taqdirda ham natijasi — isrofmiz kundan kun ortib borayotgandek.

Elektr energiyasini isrof qilmaslikni qonunan belgilab qo'yishning ham payti allaqachon



“

“Indamang, ukajon, siz bilan mening cho'ntagimdan ketyaptimi, hammasini "JEK" to'laydi, pulini qurutek sanab olayotgan bo'lsa. Aksincha, chiroq yoniq tursa, qavat fayzliroq bo'lib turadi", deb javob bergandi. Men esa "Nahotki, isrofdan fayz bo'lsa", deb bir muddat o'ylanib qolgandim.

keldi, nazarimda. Qonunchiligimizda undan o'g'rincha foydalanishga qat'iy jazolar tayinlangan, ish hatto qamoq jazosigacha yetib borishi mumkin. Lekin pulini to'ladim deb uni istaganicha isrof qilayotganlarga chora ko'rilganiga guvoh bo'lmaganmiz. Masalan,

“

Elektr behuda isrof bo'layotganini ko'rsam, ba'zan bobom esimga tushadi — qaniydi tirik bo'lsa-yu, shularni bir koyib bersa, deymen. Aslida, jamiyatimizga bobom singari odamlar kerak. Sababi kelajak o'tmishdan tarbiya oladi. Bugun negadir yo nasihatgo'y bobo-momolar kamayib ketdi yoki yosh avlod kattalarga umumun quloq solmay qo'ydi. Nima bo'lgan taqdirda ham natijasi — isrofmiz kundan kun ortib borayotgandek.

internet ma'lumotlariga ko'ra, Yaponiyada isrofgarchilikka qarshi kurashuvchi tartib-qoidalar mavjud. Germaniya, Fransiya va Xitoy kabi mamlakatlar ham bu borada allaqachon yetarli ko'rsatkichlarga erishib ulguragan. Menincha, mutasaddirlarimiz bunday tartibni mamlakatimizda ham joriy etish haqida o'yab ko'rsa, ayni muddao bo'ldi, katta hisobda elektr tejalar. Axir bir-ikki marta ma'muriy javobgarlikka tortilgan inson bu harakatini qayta sodir etarmidi?

Itimoiy tarmoqlarda isrof haqida ibratli hikoya o'qigan edim. Unga ko'ra, bir yurtdoshimiz Germaniyada ovqatlanish uchun restoranga kiradi. Bu yerda odam siyrak, nariroqdagida stolda 3-4 ayol o'tirardi. Hamyurtimiz och bo'lgani uchun ko'proq taom buyurtma qiladi, biroq uning yarmini ham yeya olmaydi. Buni ko'rgan haligi ayollardan biri restoran boshqaruvchisiga shikoyat qiladi. Boshqaruvchi buni hamyurtimizga yetkazganda, u "O'zinning pulimga sotib oldim, xohlasam yeyman, xohlasam qoldiram" mazmunida e'tiroz bildiradi. Ayollar esa "Pul o'zigniki, ammo resurslar barchamizniki", deb javob qaytaradi. Darhaqiqat, madaniyatning ayni ko'rinishi bugun bizga ham nihoyatda zarur, nazarimda. Sababi o'zining pulimga o'lyapman-ku, deya sovrarayotganimiz juda ko'p resurslarni, jumladan, elektr energiyasini vaqti kelib pulimizga ham topa olmay qolayotganimiz bor gap. Shunday ekan, borini borida qadrlaylik. Zero, to'y o'tgandan keyin nog'ora chalganning foydasi yo'q.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Agrotarmoq

ANORCHILIKDA DRAYVERLAR MAQBUL YECHIMMI?

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, anor va undan olingan mahsulotlar ulushi dunyo bozorida 8,2 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilga borib, bu summa 23,14 milliard dollarga yetar ekan. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, undan turli ichimliklar tayyorlanadi. Shuningdek, anordan kosmetologiya va farmatsevtikada ham foydalaniladi.



Mamlakatimizda anorning 30 dan ortiq turi yetishtiriladi. Ayni paytda O'zbekistondagi anorzorlarning katta qismi Surxondaryo viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Bugun vohada anorzorlarning umumiy maydoni 11 ming gektar. Shundan 5760 gektari Sherobod tumanida joylashgan. Mutaxassislar fikricha, Yer yuzida anorning 130 dan ortiq navi yetishtiriladi. Bu meva yoz fasli nisbatan uzoq davom etadigan Sheroboddek hududlarda yaxshi pishib yetiladi.

Keyingi yillarda boshqaruvdagi eng quyi bo'g'in, ming yillik qadriyatlariga asoslangan, dunyoda muqobil yo'q mahalla tizimi aholi bandligini ta'minlashga keng imkoniyatga ega bo'lmoqda. Prezidentimizning joriy yil 5-martdagi "Aholi xonadonlarida sanoat usulida mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash hamda tomorqa va dehqon xo'jaliklarida yangi zaxiralarni ishga solishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mazkur imkoniyatlar ko'lamini kengaytiradi.

“Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili bo'yicha har bir mahallada muayyan ekin turini yetishtirish maqsad qilindi. Shu asosda Sherobodda anorchilik asosiy drayverga aylandi. Tumanidagi aholi xonadonlariga tegishli 960 gektar yerda 864 ming tonna anor parvarishlanayapti. Ulardan olingan hosilning 50 foizdan ortig'i xorijga eksport qilinmoqda. Bu orqali 30 mingdan ortiq kishining ish bilan bandligi ta'minlanayapti.

— Sherobod tumanining “Xo'jaqiya-2” MFY ahli anor yetishtirishga usta. Bu bizga bobomeros. U paytlar hozirgidek zamonaviy agrotexnika ishlovi kam berilgan. Lekin tabiiy sharoit, organik o'g'it, to'rt faslda ham bog'dan beri kelmaslik natijasida bugungidan ham yirik anor hosili yetishtirilgan. Hosildan nishona keyingi yilning yoziga qadar sandiqlarda saqlanardi, — deydi usta bog'bonlardan biri Navbat bobo Saodatov. — Bugun esa o'sha yo'qolib borayotgan anorlar yana bog'larimizga qaytayotgandek. Serhosilik yanayam ortgan. Bozor ham bor. Ayni kunlarda hosilni yig'ib-terib olish ishlari qizg'in ketmoqda. Bu tomonlardagi mahallalarda yashaydigan bog'bonlar parvarishlayotgan anorlar o'ziga xos va hosildorligi bilan ajralib turadi.

Qishloq xo'jaligidagi sardaromad sohalardan biri bo'lgan anorchilikning rivojlanishi tumanning qishloq xo'jaligi borasidagi salohiyati va yutuqlarini kengaytirish uchun zamin yaratayapti. Eng muhimi, odamlarning bandligi ta'minlanib, oilalar farovonligiga erishilmoqda. — Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va eksport imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masalalardan. Shu sababli ham mazkur yo'nalishga muntazam e'tibor qaratilmoqda, — deydi soha mutaxassisi Doston Ubaydullayev. — Bozor iqtisodiyoti sharoitida bog'dorchilikni rivojlantirish intensiv va superintensiv texnologiyalarga o'tishni taqozo qiladi. Shu

bois, boshqa hududlar qatori Surxondaryoda ham mevazorlarni kengaytirish, eski, foyda bermaydigan, hosili kam bog'lar o'rniga yangi zamonaviy intensivlarini barpo etishga alohida e'tibor qaratilyapti. Ayniqsa, anor yetishtirishdagi ishlar natijasida viloyatning eksport hajmi ortib boryapti.

Davlatimiz rahbari 2021-yil 1-2-iyun kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida Sherobod tumanida ham bo'lib, anorchilikni ilmiy asosda rivojlantirish, ayni yo'nalishda malakali kadrlar tayyorlash, shuningdek, yangi mahalliy navlar yaratish, yuqori hosildorlikka erishish, anor mahsulotining eksport hajmi va daromadini oshirish yuzasidan aniq vazifalarni belgilab bergan edi. Vazifalar ijrosi va samarasi tufayli anor tumanning “tashrif qog'ozi”ga aylandi. Sherobod anori bugun nafaqat mamlakatimizda, balki xorijda ham tanig'li.

— Mamlakatimizdagi anorzorlarning uchdan bir qismi Surxondaryo viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Shuni inobatga olsak, sohaga yo'naltirilgan ilmiy yondashuv bog'dorchilikda anorning daromad cho'g'i nisbatan baland ekanidan dalolat beradi, — deydi Surxondaryo viloyati anorchilik uyushmasi rahbari Shuhrat Bo'riyev. — Ilgari 1 gektar anorzordan 10-15 tonna hosil olingan bo'lsa, qishloq xo'jaligining ilm-fan bilan integratsiyalashuvi natijasida bugun 35-40 tonnagacha anor yetishtirilmoqda. Odatda xaridorlar anor tanlashda qator



jihatlariga e'tibor qaratadi. Kimdir vazni og'irligiga, boshqa biron esa rangi tiniqligiga qaraydi. Sherobodlik bog'bon Toji Rasulovning aytishicha, anorning zo'ri mos iqlimda, barcha agrotexnik talablar asosida yetishtirilganidir. Ko'p yillik tajribasiga asoslanib, anorchilikda o'ziga xos maktab yaratgan yurtidoshimiz shu kunlarda hosilni yig'ib olishga kirishgan.

— Sherobodda yetishtirilayotgan “Gulobi”, “Toshqo'rg'on”, “Gayzara”, “Qora dona” nomli anor navlari uzoq muddat saqlanish xususiyati tufayli xaridorlar e'tiborini qozonib keladi. Endi shu kabi sara anor navi hosilni kuz faslida oldinma-kekin yuk mashinalarida xorij bozoriga chiqaypti, —

deydi Toji Rasulov. — Eng muhimi, odamlar daromad o'lyapti. Ko'z o'ngida qo'shnisi kichkina tomorqasida anor yetishtirib, hosilni tayyor xaridorga topshirib, mo'may foyda topayotganini ko'rib, dunyoqarashi o'zgarayotgan, yerga mehr berishga kirishayotganlar safi kengaymoqda.

Sherobod tuproq unumdorligi, suvga boyligi va quruq havosi bilan anor yetishtirish uchun qulay joy. Shu sababli ham dehqonchilikka muayyan talablar erishish mumkinligi inobatga olinib, tumanda anorzorlar yildan yilga kengaytirilyapti, serhosil navlar yetishtirilmoqda. Yaqin kelajakda Sherobod tajribasi asosida

43 ming xonadonda anor parvarishlash bo'yicha “yo'l xaritasi” ishlab chiqilgan. Shunga mos ravishda tumanda har yili o'tkazib kelinayotgan “Anor festivali” ko'lami ham kengayib bormoqda.

Anorchilik bilan shug'ullanayotganlar orasida xotin-qizlar ham bor. Jumladan, Majmuntol mahallasida istiqomat qilayotgan Nazira Choriyeva anorchilikni rivojlantirish bo'yicha boy tajribaga ega. U hozir shaxsiy tomorqasida anorning serhosil navlarini ekib, xalqimiz dasturxonining to'kin-sochinligini ta'minlashga munosib hissa qo'shmoqda. Onaxon sayil va yarmarkalarda o'zi yetishtirgan hosil namunalari bilan qatnashib, bir necha bor “Tomorqachilikni rivojlantirishda eng faol xonadon” nominatsiyasi sohibi bo'lgan.

— Momom xotin-qizlarni anorga qiyos etadi. Yillar o'tib, o'zim kayvoni yoshiga yetib, ayol bilan anorning bog'liqligi, taqdiri o'xshashligi ko'pligini anglatdi. Anorchilikka ishqim tushgan. Umr bo'yi anor yetishtirib, sotish bilan shug'ullanib kelyapmiz. Bu yo'lda qiynalgan paytlarimiz ko'p bo'lgan, — deydi



Nazira Choriyeva. — Davlatimiz rahbarining Sherobodda anorchilikni rivojlantirish bo'yicha tashabbusi tufayli soha rivojlandi, bozor imkoniyati kengaytdi. Bu bizni yanada ko'p ishlab, bilganlarimizni o'rgatishga undayapti.

Chekka hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish aholi bandligi, farovonligi va barqaror iqtisodiyotni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, mazkur yo'nalishda joylarda tizimli ishlovlarni izchil davom etyapti. Natijasini ko'rib, quvonmaslikning, ruhlammaslikning iloji yo'q.

Sarvar TO'RAYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

MUDDATIDAN ERTA DUNYOGA KELGAN BOLALAR

ULARNING YASHASH KO'RSATKICHI OSHIB BORMOQDA

500 grammdan kam vaznda tug'ilgan chaqaloqlar ham yashamoqda

Markaz shifokorlarining aytishicha, yaqinda muddatidan 14 hafta avval 670 grammlik qizaloq dunyoga kelgan. Hozir uning vazni 1000 grammdan oshgan va onasi bilan birga nazoratda turibdi. Erta tug'ilgan bolalar kuniga 15 grammdan vazn olsa, bu mo'tadil jarayon va yashash ko'rsatkichi oshib boradi.

Bundan bir necha yil avval AQSHning Minneapolis shahrida Richard ismli chaqaloq muddatidan 131 kun oldin dunyoga kelgani haqidagi xabarlar ijtimoiy tarmoqlarda shovshuvga sabab bo'lgan edi. Tug'ilganida uning vazni bor-yo'g'i 337 grammni tashkil qilgan. Shifokorlar bolaning tirik qolish imkoniyatini



Xalq orasida yetti oylik bolaning yashab ketish ehtimoli yuqori, undan avval tug'ilgan bolalar yashab ketmaydi, hatto sakkiz oylik bolalarning ham yashashi qiyin, degan gaplar yuradi. Bu qanchalik to'g'ri ekaniga qiziqdik.

Bunday qarashlar bugun noto'g'ri ekanini o'z isbotini topdi, — deydi Malika Usmonova. — To'g'ri, ilgari tibbiyot rivojlanmagan edi va bolalarning erda tug'ilishi ularning yashash ko'rsatkichini ham pasaytirib borardi. Tibbiyot taraqqiy etgani sayin bunday bolalarning yashash ko'rsatkichini oshirish imkoniyatiga egamiz. 600 grammdan past vazndagi bolalarning yashash ehtimoli kam. 700-800 gramm vaznda juda ko'p bola tug'ilgan. 24-25 haftalik bolalarni parvarishlab, muvaffaqiyatli natija bilan uyiga ruxsat berganmiz.

deyarli nolga baholagan, biroq tug'ilganidan olti oy o'tgach, shifoxonadan uyiga olib ketishlariga ruxsat berilgan. Richard belgilangan vaqtidan ancha erda tug'ilib, yashab ketgan chaqaloq sifatida Ginnessning "Rekordlar kitobi"ga kiritilgan.

Toshkent shahri perinatal markazida ham 480 grammlik chaqaloq dunyoga kelgan. Risolat ismli qizaloq 24 haftaligida tug'ilgan va hozir u 6 yoshda.

Muddatidan bir oy avval 970 gramm vazndagi farzandim dunyoga keldi, — deydi Jamila Turgunova. — Oradan o'ttiz kun o'tdi, hozir u 1800 gramm. Ahvoli yaxshi. Tug'ilganda juda ko'rqan edim, markaz shifokorlarining yordami bilan shu natijaga yetdik. Xudo xohlasa, bugun uyimizga ruxsat berilyapti.

Dunyoga kelgan chaqalog'ini mamnuniyat bilan tug'uruqxonadan uyiga olib ketish — har bir ota-onaning orzusi. Ammo hamma go'dak ham o'z vaqtida dunyoga kelib, 2-3 kunda uyiga ketavermaydi. Muayyan sabablarga ko'ra, ba'zi bolalar muddatidan ancha erda tug'ilishi mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 15 milliondan ortiq bola muddatidan oldin tug'iladi. Ularning bir millioniga yaqini yashab keta olmaydi. Biroq bu raqam tibbiyot rivoji natijasida kamayib borayotir.

olsa, keyingi rivojlanish ehtimoli ancha yaxshilanadi.

Vazni kam tug'ilgan bolaning hayotga moslashish jarayoni qiyin kechadi.

1000 grammdan kam vaznli chaqaloqlar inkubator sharoitida tug'ilish muddatigacha parvarishlanadi. Oshqozon zondi orqali oziqlantiriladi. Vazni me'yoriga yetgunga qadar nazoratga olinib, ko'z, quloq, miya faoliyati tez-tez skrining qilinadi.

Bolalar muddatidan oldin tug'ilgach, tashqarida barchadagi sharoitni yaratish kerak. Chunki bu muddatdan so'ng go'dak kindik orqali oziqlana olmaydi, — deydi Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmasi bosh neonatologi Malika Usmonova. — Umumiy tug'uruqning 5 foizgacha qismi muddatidan erda tug'ilishga to'g'ri keladi. Vazni 500 grammdan boshlab tirik tug'ilgan bolalarni FHDYO organlarida qayd etamiz va tibbiy yordam ko'rsatamiz. Nafaqat tibbiy yordam, balki ularning to'g'ri rivojlanishi kelgusi hayotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfdan saqlanishi uchun tavsiyalarni berib boramiz. Erta tug'ilgan bolalarda nafas olish muammosi, oziqlanish bilan bog'liq qiyinchiliklar, miyaning yarim falajlanishi, rivojlanishning kechikishi, eshitish bilan bog'liq muammolar uchrashi mumkin, ammo tibbiy ko'riqdan vaqtida o'tilsa hamda kerakli muolajalar qilinsa, barchasi yengib o'tiladi.

Hozir Toshkent shahri perinatal markazida bunday holatda tug'ilgan ko'plab bolalar parvarishlanib, nazoratda bo'lib turibdi. Muddatidan erda tug'ilgan bolalar ahvoli, muolaja turlari, ularni kutishi mumkin bo'lgan xavflar haqida ma'lumot olish uchun markaz faoliyati bilan tanishdik. U yerda parvarishlanayotgan onalar va bolalar holati, ularga g'amxo'rlik qilayotgan shifokorlarning mavzu yuzasidan fikrlariga qiziqdik.

Muddatidan erda tug'ilgan chaqaloqlarning yashash ehtimoli ularning vazni va ahvoriga bog'liq. Chaqaloq 22 dan 37 haftagacha bo'lgan davrda tug'lsa va 500-2500 gramm vaznga ega bo'lsa, unga nisbatan erda tug'ilish tashxisi qo'yiladi. Demak, erda tug'ilish me'yoriy homiladorlik davri, ya'ni 40 hafta tugashidan oldin tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan ishtiladi. Bunday bolalarning yashab ketish ehtimoli juda past. Chaqaloq bir hafta-o'n kun yashovchiligi namoyon etib, hayot uchun kurasha



"Qizimning katta bo'lishi xuddi kinoga o'xshaydi"

Istoraxonning o'zi ham tug'uruqxonada shifokor bo'lib ishlaydi. Olti oylik homilador paytida bexosdan tug'uruq boshlanib qoldi. Bu ikkinchi farzandi bo'lgani, bundan avval sog'lom bola dunyoga keltirgani uchun bu holatdan dovdirab qoldi. Hali mehnat ta'tiliga chiqishga ham ulgurmagani ayol juda qattiq qo'rquvga tushadi va tug'ilajak bolaning omon qolishiga ishonmaydi. Ammo umid qilgisi, uni bag'riga bosib ulg'aytirgisi kelardi. Shifokorlar, muhimi, o'zi sog'lom ekanini, kelajakda yana farzandlar ko'ra olishini aytib, uni bo'lajak fojiga ruhan tayyorlaydi. "Qizimning katta bo'lishi xuddi kinoga o'xshaydi", deydi Istoraxon Toshmuhammedova. Bola 800 grammdan bir oz ko'proq vaznda tug'ildi. Chaqaloq bir oya yaqin muddat reanimatsiya bo'limida parvarishlandi.

— "Mana, bolangiz, ko'ring, qo'rqmang", deyishdi. Bolamni birinchi marta bag'rimga bosganimda, u ko'zini ochib menga qaradi, — deydi I.Toshmuhammedova. — Shunda judayam xursand bo'lib ketdim. Aslida, undan umidimni uzgandim, vidolashish uchun kirgandim, ammo... Allohdan kechayu kunduz bolam sog'-salomat voyaga yetishini, elimizga xizmat qiladigan, bizga qaragan shifokorlarga rahmat aytib ketadigan farzand bo'lishini so'radim.

Ikki oy o'tib, muvaffaqiyatli muolajalardan so'ng ona-bolaga uyga qaytishga ruxsat beriladi. Shundan keyin bola kuchli nazoratda bo'lishi, yurak, ko'z va miya faoliyatini nazorat qilish uqtiriladi. Navbatdagi tekshiruvlardan birida kutilmaganda bolaning yuragida shovqin borligi aniqlanadi. Esankirab

qolgan ota-onaga shifokor bolani bir yoshga to'lganda qayta tekshiruvga olib kelishi kerakligini, bu muddatda yurak o'zini tiklay olishi mumkinligini, agar bunday bo'lmasa, operatsiya qilishga majburligini aytadi.

— Qizim bir yoshga to'lgan kuni dadasi bilan yuragimni qo'limizga olib shifokor huzuriga yugurdik, — deydi ayol. — Nima bo'lsayam shu bosqichdan ham o'tishimiz, kurashimiz kerak edi. "Eshitishga tayyormisizlar?" dedi doktor bolamni tekshirib bo'lgach. Katta hayajonda uning og'ziga tikilib turaverdik. "Nega mening oling, soppa-sog' bolani olib keldilaringiz, bolangiz salomat, tabriklayman" dedi shifokor. O'sha damdagi quvonch ko'zyoshlarimizni hozir sizga tushuntirib berolmayman. Shukur, mana qizim yetti yoshga to'ldi. Solihaxon bugun 1-sinfda o'qiyapti.

Erta tug'ilgan chaqaloqlarning hayotga ko'nikishi, rivojlanishi va jismoniy harakatlanish bosqichlari takomillashuvi o'tonalardan qiyinchilik, sabr va mehnat talab qiladi. E'tibor va qunt bilan parvarishlash, tibbiy ko'riqdan tez-tez o'tkazib turish ularning keyingi hayoti uchun juda muhim.

Hayotga erda kelgan bolalar hech qaysi tengdoshidan aqlda, bilim olishda, dunyoni idrok etishda qolishmaydi. Tarix guvoh: muddatidan oldin dunyoga kelgan bolalardan buyuk siyosatshunoslar, san'atkorlar, davlat arboblari, mashhur yozuvchi-shoirilar va bilim sohiblari yetishib chiqqan.

Rashid XO'JAMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Uyg'oc fikr

Ijtimoiy psixologiya nuqtayi nazariga ko'ra, internetga qaramlikning boshlanishi haqida odam doimiy ravishda bilib boradi va bunga ruhan tayyorgarlik ko'radi, shuning uchun mediamakonga moslashish deyarli har bir erkak, ayol, bolakayda oson kechadi.

MEDIASAVODXONLIK — BUGUNGI AXBORIY JAMIYATNI TUSHUNISH KALITI



Axborot iste'molchisi har doim keyingi yangilikni kutadi, aslida, undan oldingi yangilikni ham u xuddi shunday zo'riqish, sarosima bilan kutgan, ammo hozirgi yangi xabardan keyingisi unga har gal umidbaxsh tuyulaveradi. Uning hayotini o'zgartiradigan taklif, imkoniyat, ish yoki nihoyatda arzon, hech kim bilmaydigan chegirmlar, lotereya o'yinlari, giv-konkurslar ko'zlarini kiritayib ketgan, qo'li hech ishgah bormay qolgan iste'molchi hafsalasi bilan muttasil ravishda o'ynashaveradi: goh xursand qiladi, goh kuldiradi, gohida esa tushkunlikka botiradi.

Smartfonni qimmatroqqa o'zgartirgan biror tanishingizni kuzating: xatti-harakati sezilarli darajada o'zgaradi, fikri tarqoqlashadi, nutq faoliyatida uzilishlar kuzatiladi, gaplarni bir-biriga ulay olmay jig'ibiyron bo'ladi, ichidagi dardi, og'rig'i, quvonchini batafsil tushuntirib bera olmayotganidan asabiylashadi. Oxir-oqibat uning mulqot qilish usuli virtual olamga to'raligicha ko'chadi, — deydi grafik dizayner va veb-dasturchi Umar Muhammadiy. — Albatta, smartfondan voz keching deb namoyish o'tkazishdan yiroqimiz. Bu axboriy oqimni endi qaytarolmaymiz. Biz istayotgan narsa shuki, mana shu oqimda qo'shilib oqib ketmaslik uchun mediaga doir saviyamizni ham, medianing o'zining saviyasini ham oshirish kerak. Biri ikkinchisiz sodir bo'lmaydi.

Infoetikadan bexabar odam smartfondan osonlikcha voz kechmaydi, ya'ni ijtimoiy tarmoqlarga munosabatini o'zgartirish ehtimoli kam, chunki qo'lidagi matohi o'z egasining alter egosi bo'lib, hamma ham haqiqiy dunyodagi real munosabatlardan uchun virtual "men" bilan xayrlashishga tayyor emas. Messengerlardan

anonim tarzda foydalanish va yuzlab avatarlarni yaratish imkoniyati virtual muhitni inson chinakam hayotda amalga oshirish mushkul bo'lgan tasavvurlarini ro'yog'ga chiqarish joyiga aylantirib qo'ygan. Oddiy internet foydalanuvchisi bir vaqtning o'zida biror kompyuter o'yinida afsoning, tanishuv chatlarida ehtirosiga boy yigit, onlayn ilmiy forumda taniqli olim, o'zining sahifasida kitobxon bo'lishi mumkin. U ijtimoiy tarmoqda o'ttirgan tanishlarini o'zi istagan songa yetkazadi, saralaydi, muayyan reytinglar yordamida ijtimoiy mavqeg to'play oladi va bundan har doim faxr hissi tuyadi.

Ijtimoiy tarmoqlar kuni bo'yi sarflashingiz kerak bo'lgan quvvatni bir necha daqiqada so'rib oladi. Yangiliklar tasmasidagi postlarni, rasmlarni, barchkana videolarni birma-bir o'tkazar ekanisiz, ulkan psixik quvvat sarflanadi. Bir post asabingizga tegsa, biri sharaqlatib kuldiradi, biri nostalgiga uyg'otsa, boshqasi orzular osmonida parvoz etishga undaydi. Arzimagan besh-o'n daqiqada ichida juda ko'p, bir-biriga zid hislarni tuyganingizni bilmay qolasiz. Bu katta energiya sarfidi, boisi, bitta postdan paydo bo'lgan his hali so'rib ulgurmay, boshqa postdan yuqung hisga duch kelasiz. Bora-bora hislarni chala holda qabul qilishni boshlaysiz, xuddi shunday fikrlashni ham. Tafakkuringizdagi xaos tumush tarzingizga ham ko'chadi: uya kelibqoq paypoqni chala-yarim yechib, yig'ishtirilgan yotoqqa ag'andingizmi, bilingiki, ongda ham shunday tartibsizlik hukmron.

Hech yo'q yarim soat faqat bitta ish qilish, butun diqqatni bir yumushni oxiriga yetkazishga qaratishni unutilib qo'ydik. O'zimiz



uncha xushlamaydigan ishni chalg'imasdan bir soat qilganda hatto dam oladigan holga kelib qoldik. Bunday paytlarda sayr — eng to'g'ri yechim. Yoki haftaning qaysidir kuni o'zingizni axborotdan xoli qo'ying. Ishoning, siz izlab topmasangiz ham axborotning o'zi sizni izlab topadi. Allaqaysi tanishingiz, qo'shingiz yoki odamlarning kayfiyatidan bilib olasiz. Ammo bu xalos bo'lish yechimi. Moslashish, murossa qilish uchun mustahkam iroda va mediasavodxonlik zarur.

Dofamin detoksi

Bugun hayot sifatini oshirish, ijobiy ma'nodagi quyaliklardan foydalanish uchun imkoniyatlar, tanlovlar har doimgidan-da ko'p bo'lishiga qaramay, nega ko'pchilik o'zi istagan narsalarga erishishga hafsala topolmaydi, ishgah qo'li bormaydi, boshlay olganini oxirigacha yetkaza olmaydi? Irodaning mo'tligi,

maqsdalarning mavhumligi, bir tomondan, ruhiy muammolar, aniqrog'i, xususiyatga asoslangan sozlamalar — bir paytlar "a'lochi" deb hisoblangani uchun yo hali ham shunaqaligini isbotlashga harakat qilib ko'p toliqadigan yoki xato qilish va "beudda" sifatida ko'rinishdan qo'rqib harakatlarini tormozlaydigan odamlardan biri ekanini bilib turish va boshqa qo'rquvlar biror harakatni amalga oshirishga yo'l qo'ymasa, yana bir katta sabab ijtimoiy tarmoqlardir.

Ijtimoiy tarmoqlardan muttasil foydalanish baxt va quvonch gormoni deb ataluvchi dofamin neyromediatorini ishlab chiqarilishiga turki bo'ladi. Dofamin yakuni yoqimli biror maqsadga intilishingiz davomida sizda harakat istagini uyg'otish uchun kerak. Nimanidir quyulib bajarish, do'ndirib qo'yish, orzularingizni eng kichik qismini bo'lsa ham amalga oshirish, o'zingiz xohlagan narsalarga erishish davomida katta miqdorda



Taniqli siyosatshunos Samuyel Xantington aytmochi, yangi dunyoda ixtiloflar manbai mafkura ham, iqtisodiyot ham bo'lmaydi. Insoniyatni ajratib turgan qaltis chegara va asosiy ixtilof manbai madaniyat bo'lib qoladi. Global siyosatning eng yirik ixtiloflari turli millat va tamaddunga mansub guruhlar o'rtasida yuz beradi. Bu jarayonda mediasavodxonlarning insoning dunyoda madaniyatlar turli-tumanligi haqida tasavvur, madaniy farqlarga nisbatan tolerant munosabatda bo'ladi.

dofamin ajralib chiqadi. Ko'rinib turibdiki, dofamin yomon emas, aksincha, maqsadlarga erishishda ko'maklashadi. Ammo u axboriy xurujga aloqador dofamin bo'lsa, holingizga voy, — deydi psixolog hamda jurnalist Ma'ruf Ochilov. — Ijtimoiy tarmoqlar dofamin olishning eng arzon yo'li hisoblanadi. Siz chiroyli, kuligili, qiziqarli deb o'yilagan suratlar, videolar, postlarga yetish uchun ortiqcha harakat qilishga hojat yo'q — bitta barmoq ezish bilan istagan narsangiz paydo bo'ladi. Natijaga soddada tarzda erishish keyingi yangi natijaga undaydi. Bu natija ham unchalik uzoqda emas, atigi bitta barmoq ezishdan so'ng. Shu tariqa doimiy stimulyatsiya tuzog'iga tushib qolamiz. Bunda natijadan ko'ra, unga yaqin ekanimiz bilan bog'liq jazzat hissi muhim bo'lib qoladi. Bu jazzat tufayli o'zimizni yangiliklar tasmasini aylantirishdan to'xtatolmay qolamiz. O'yinlarga qaramlik, layklar miqdorini tekshirishga o'chlik kabilarimg asosida dofamin tuzog'iyotadi.

Endi yaxshi hayotni yanada yaxshilash istagi

sustligi masalasiga qaytsak. Organizm eng oson yo'lni qidiradigan tuzilma. Dofamin arzon yo'l bilan bo'lsa ham ishlab chiqarilayaptimi? Albatta. Endi, shubhasiz, real hayotda qiyinroq maqsadlarga intilish xohishi pasayadi. Bugungi kunda odamlarda xavotir darajasi kuchayganini ham shunday izohlasa bo'ladi: ong osti chinakam hayotdagi ahvol durust emasligini bilib turadi, ammo vaziyatni to'g'rilash uchun zarur bo'lgan dofamin boshqa yo'lda sarflanayapti.

Quvvatni sug'urib oluvchi mana shunday axborotning tovar sifatidagi tijoriy imkoniyatlari oshishi, feyk, ammo shokka tushiruvchi yangiliklar va manipulyativ ta'sirning kengayishi aholing axborot madaniyatini shakllantirishni taqozo etmay qolmaydi.

Aksar tanishlarim o'zimizdagi mediata'limni rivojlantirishda ilg'or davlatlarning sinovdan o'tgan tajribasini shundoq ko'chirib qo'ya qolgan oson va samarali-ku, deb aytadi. Aslida, unday emas, — deydi PDP Universiy mediamarkazi videopreorlari va mustaqil MS muhandisi Ulug'bek Usmonov. — Chunki axboriy muammolar turli joyda turilicha hal qilinadi. Masalan, mediata'limga doir ba'zi xorijiy qo'llanmalarda axloqiy tafovutlar va diniy masalalardagi ba'zi nozik farqlar, o'zgacha nuqtayi nazarlar, qarashlar o'zbek milliy mentalitetiga, bobolarimiz asrdan asrga opichlab o'tgan muqaddas qadriyatlariga to'g'ri kelmaydi. Aytmoqchimaniki, mediasavodxon "do'ppi kiydirilsa", tarbiya bilan parallel ravishda oila institutining bevosita ishtirokida rivojlantirilib borilsa, mamlakatimizda sog'lom va taraqqiyotga intiluvchan mediamuhit shakllanishiga shubham yo'q.

Taniqli siyosatshunos Samuyel Xantington aytmochi, yangi dunyoda ixtiloflar manbai mafkura ham, iqtisodiyot ham bo'lmaydi. Insoniyatni ajratib turgan qaltis chegara va asosiy ixtilof manbai madaniyat bo'lib qoladi. Global siyosatning eng yirik ixtiloflari turli millat va tamaddunga mansub guruhlar o'rtasida yuz beradi. Bu jarayonda mediasavodxonlarning insoning dunyoda madaniyatlar turli-tumanligi haqida tasavvur, madaniy farqlarga nisbatan tolerant munosabatda bo'ladi. O'z qadriyatlarini rad etmaydi, boshqa madaniyatlar ustidan ham ochiqdan ochiq hukm chiqarmaydi. Birgina mediasavodxonlik dinlararo bag'rikenglik, madaniyatlararo tenglik, ijtimoiy integratsiya, farovonlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashga ulkan hissa qo'shadi.

Azizbek YUSUPOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



O'rol Tansiqboyev tavalludining 120 yilligiga

TOG'LARGA OSHIQ MUSAVVIR

YOXUD MILLIY SAN'AT BIR KUNDA YARATILMAYDI

Hayot matosini molbertga tortib, mohir rassom o'z umriga mos bo'yoqni kashf qilishga kirishdi. Huv ana, quyoshrang do'lanazor shamolda masrur tebranmoqda. Burgut parvozi dillarga g'ulu soladi. Giyohlaru chechaklardan esa hayot nafasi taralmoqda. Tog'lar bag'ridagi bu go'zal simfonyadan birin-ketin etyudlar chizila boshladi. Aytishlaricha, bu etyudlarni qaytadan chizishga uringan rassomlar ko'p bo'lgan, biroq ularning hech biri O'rol Tansiqboyev kashf etgan ranglar jilosi va dilg'irligini topa olmagan. Balki bu ranglar ijodkorning o'z yurtiga cheksiz muhabbati, qalb haroratidan yaralgani bois, shunchalar sirli. Ha, har gal O'zbekiston xalq rassomi O'rol Tansiqboyev asarlariga boqqanimizda turfa ranglaru ohanglarga to'la bir kuy — ona vatan taronasi yangray boshlashi bejiz emas...



Lahzalar va abadiyat siri nimada?



konservator-restavrator Klavdiya Sindako ilmiy rahbarligida Milliy meros instituti vakillari, shuningdek, Igor Savskiy nomidagi davlat san'at muzeyi restavratsiya bo'limi xodimlari jalb qilindi. Muzeyga kelgan tomoshabinlar ko'proq rassomning O'zbekiston tabiati bilan bog'liq asarlari haqida so'zlab berishimizni so'raydi. Rassom O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikistondagi tog'larga ko'p sayohat qilgan, umrining asosiy qismi tog'larda o'tgan. "Tog'dagi qishloq", "Jonajon o'lkam" kartinalari qoshida tomoshabinlar maftun bo'lib qolib ketadi.

O'zbekiston xalq rassomi O'rol Tansiqboyev tavalludining 120 yilligi arafasida bir xushxabar tarqaldi. O'zbekiston xalq rassomi Bahodir Jalolov "Lahzalar va abadiyat" asari uchun Qozog'istonda tashkil etilgan O'rol Tansiqboyev fondining oltin medali bilan mukofotlandi. Uyu-muzey galereyasida har bir asar qoshida uzoq-uzoq o'yga tolgan sevimli rassomimizni shubhatga chorladik.

— Ustozim O'rol Tansiqboyev bilan shubhatlashish nasib etmagan, biroq o'zini uzoqdan ko'rganman, — deydi rassom. — Yosh bo'lganim uchun yoniga borishga haddim sig'magan. Vafot etganini eshitganimda jur'at qila olmaganim uchun afsuslanganman va bir kuni O'rol Tansiqboyev portretini, albatta, ishlayman, deya o'z oldimga maqsad qo'yganman. Niyatim xolis ekan, ustozning oila a'zolari bilan tanishib, o'sha o'zim orzu qilgan portretni ishladim. Bilasizmi, rassom asarlarini kuzatsangiz, abadiyatga aylangan lahzalari jilodidan hayratga tushasiz. Ustoz u rangdan bu rangga shunday o'tib borganiki, bu tilimotini hech kim tushuntirib berolmaydi. Ustozning asarini hech kim u kabi mukammal chizma olmaydi. Men shu mahorat sirini o'z portretim orqali ifodalab berishga intildim.

"Men tabiat bilan birga chizaman..."

Buyuk rassom O'rol Tansiqboyev asarlarini tomosha qilar ekansiz, beixiyor ijodkorning quyidagi so'zlarini yodingizga tushadi: "Milliy san'at bir kunda yaratilmaydi. U uzoq yillar davomida ko'plab musavvirning uzluksiz sa'y-harakatlari mahsulidir. Uni unutmog' yoki bekorga chiqarmoq mumkin emas, uning an'analariga o'z taqdirini bog'lamasdan manzur bo'la'li hech narsa yaratib bo'lmaydi".

Rassomning bu so'zlarida tajriba, adashishlar, izlanishlar, ijod mashaqqatlari o'z ifodasini topgan. O'zbekiston xalq rassomi Javlon Umarbekov ustozining saboqlari va uning hayotidagi tungan o'rni haqida bunday deydi:

— 1960-yilda Benkov nomidagi respublika rassomlik bilim yurti o'quvchisi bo'lsam-da, bu yerdagi 3-4-kurs talabalaridan dars olib turardim. Shu yili yoshlarning katta ko'rgazmasi tashkil etilganida "Hosil" deb nomlangan ijodiy ishim tanlab olindi. O'sha paytdagi O'zbekiston rassomlari itifoqidan qo'ng'iroq qilishib, uning raisi O'rol Tansiqboyev boshliq katta komissiya yo'q'layotganini aytishdi. Bu yangilikdan boshim ko'kka yetdi. Bir xonaga kirsam, komissiyaning 5-6 a'zosi o'tirgan ekan. Kirishim bilan to'rdagi g'aydali, yuzlari qizil-sariqdan kelgan savlatli kishi — O'rol Tansiqboyev "Ha, Umarbekov sizmisiz? Biz sizning ijodiy ishingizni sotib olishga qaror qildik", dedi.



O'rol Tansiqboyevning "Hamisha O'zbekiston farzandi bo'lib qolaman..." asari.


Bu gapdan men — oddiy bilim yurti talabasi juda hayajonlanib ketdim. Kichkina asarimga 600 rubl mukofot puli berildi. Pulni oldim-u, uyalganimdan yugurib xonadan chiqib ketdim. Ustoz ana shunday adolatli, yosh ijodkorlarga marhamatli edi. O'rol aka shogirdlariga qattiq gapirgani, urishgani yoki do'q urganini hech eshitmaganmiz.

O'rol Tansiqboyev O'zbekiston deb atalgan tarovatli yurtning go'zal tabiati, mard va tanti odamlarini kuylab, chizib tolmagan mohir rassom edi. Shogirdlarining e'tiroficha, rassom ko'proq vaqtini tog' u toshlarni kezib, yangi-iy etyudlar topishga sarflagan. Agar biror manzarani yoqtirib qolsa, o'sha joyning har bir zarrasi nigohlariga o'rnatilib qolgunicha soatlab tomosha qilar, barcha detallarni ko'z chamasini qamrab olar edi. Keyin orqasini o'girib, boshqa tarafa qarab, mo'jzagina sumkasini etyudlar va qoralamalar bilan to'ldira boshlardi.

— Mana shu etyud va qoralamalar keyinchalik yaratilgan katta-katta asarlarga mavzu bo'lgan, — deydi Javlon Umarbekov. — Ustozning ish jarayonini kuzatgan chog'larimda buyuk ispan rassomi Pikassoning "Tabiatdan olib chizmayman, tabiat bilan birga chizaman", degan so'zlarini ko'p ta'kidlaganman. O'rol aka bu so'zlarni eshitib, miyig'ida jilmayib qo'yar, "Har qachon manzara chizganda ko'rgan narsangni emas, his qilgan narsangni chizgin", deya nasihat qilar edi.

1952-yilda Fransiyaning Parij shahrida juda katta xalqaro ko'rgazma bo'lib o'tadi. Unda ustozning "Qayroqum GESida tong" nomli eng katta asari kumush medal bilan taqdirlandi. O'sha paytda bu mukofot o'zbekistonlik rassom uchun juda katta e'tirof va mavqe edi. Ushbu voqeadan so'ng O'rol Tansiqboyevni butun dunyo rassomlari taniy boshlagan.

"Hamisha O'zbekiston farzandi bo'lib qolaman..."



O'rol Tansiqboyev hamkasbi Nikolay Qoraxon bilan bo'lgan bir shubhatda "Toqqa yo'l" kartinasini qanday yaratilganini bunday so'zlab bergan ekan:

— O'shanda kech kuz, kunlar sovuq, izg'irin yelib turardi. Xo'jakentdan u yug'iga ancha vaqt mashina kutib qoldim. Aksiga olib, yo'lovchi mashinaning kabinasida joy yo'q ekan. Na chora, kuzovga chiqdim. Izg'irin tobora kuchayardi. O'n besh chaqirimcha yurgach, chidab bo'lmadi. Mashinadan tushib qoldim. Yaqinroqdagi xonadondan bir keksa

kishi nabirasini ko'tarib chiqdi. Sovuqdan dag-dag titrashimni ko'rib, darrov uyiga boshladi, tezda pista ko'mirmi laxcha cho'g' qilib tanchaga bosdi. Tanchaning chetiga meni o'rab qo'ydi. Shunday rohat qildimki, rosa terlab o'zimga keldim. Ovqatlanib, otaxon bilan shubhatlashib o'tirdik. Juda odamshavanda ekan, tunab qolishimni iltimos qildi. Shunda men xalqimizning mehri daryo, qalbi osmon, mehmondost farzandlari ko'pligidan juda faxrlandim. Ertalab yo'lga tushdim, uch-to'rt chaqirim yurganimdan keyin bir oz

dam olib, atrof-manzaralarni kuzatgim keldi. Shunda toqqa olib boradigan yo'l diqqatimni tortdi. Qoralamalar qildim. Ustaxonamga kelib, "Toqqa yo'l" kartinamni boshlab, uch seansdoyog' tamomladim. Yurganga, o'z ko'zing bilan ko'rganiga nima yetsin! Mashaqqatini chekmasang, rohatini ham ko'rmasang.


Rassomning bunday sayohatlari juda ko'p bo'lgan. O'rol Tansiqboyev o'zini, qalbini, ruhini shu zamindan, uning odamlariyu tabiatidan izlagan. Rassomning hayot yo'lga nazar tashlasak, bu izlanishlar naqadar ko'p va xo'b ekaniga iqror bo'lamiz.

Shogirdlari yana bir voqeani faxr bilan eslashadi. 1970-1980-yillar orasida rassom Olmaota shahriga tez-tez borib turgan. Chunki bu shaharda qarindoshlari ko'p edi. Bir gal tog' bag'rida quyuq ziyofat uyushtirilib, yuqori mansabda ishlaydigan odamlar ham taklif etiladi. O'rol Tansiqboyev mehmonlarga o'zining yaqindagina chizgan asarini namoyish etadi. Shunda rahbarlardan biri: "O'rol aka, siz Qozog'istonda tug'ilgansiz. Keling, biz sizga tug'ilgan yurtidagida muhtasham ijodiy ustaxonaga qurib beramiz. Katta-katta unvonlar bilan mukofotlaymiz. Qozog' xalqining eng buyuk rassomi sifatida qadrlaymiz", deydi. O'rol Tansiqboyev unga: "Yo'o'o'q, o'rtog'lar, men o'zbek rassomiman. Hamisha o'zbekistonlik bo'lib qolaman. Chunki men bu yurtini, uning odamlarini juda yaxshi ko'raman!" deydi.

Yellar hayron o'z suvratidan...

Siz "bo'shliqni yoqday zamin tepasiga egib qo'ygan odam" haqida eshitganmisiz? Ha, adashmadingiz, bu ta'rif taniqli sho'irning rassom asarlariga bag'ishlangan she'rida berilgan. Qushlarning qanoti tegib ketmasin, deya tip-tiniq osmonni balandroq chizgan musavvirning mahorati nafaqat rassomlarni, balki shoirlarni ham bejiz ilhomlantirmagan.

— Nazar Shukurning "Manzara" va "U shunday kuchliki" she'rlari tabiat kuychisi O'rol Tansiqboyevga bag'ishlangan, — deydi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Nilufar Umarova. — She'r turli yillarda bitilgan. Ikkinchisi ham lirik kayfiyat joziba sehri unga uyg'un. Holat yoxud hodisa deymizmi, g'alayonli ruhini iqlimini mo'tadillashtiradi. Bunda rassom kartinasini va so'z kartinasini tashqi tomondan qaraganda nomutanosibdek, tabiat manzarasidagi harakat "muallaq", "betan", "shamollar kishanlangan", "lolalar tebranolmas", bolalar esa "gul uzgancha qotgan", lahzalari ham "mangulikka tin" olib jim, gulxandan yuksalgan tutun ham ko'kka "qo'l cho'zguncha qolgan". Besh sezgi bilan idrok etiladigan jonli va jonsiz moddiy narsalarning barchasi harakatsiz. Aslida, shoir samoviy in'om iloh tashdidalarni yumshatish, zalolat balchig'iga botgan kimsalarni nekinligi ro'shnolikka oshno etish, har bandaning o'zini anglash uchun bitik bitmaydimi? Ranglar tutunligida g'ulomlik saltanatiga ishorani uqmaymizmi? Qalb tubidan tug'ilgan savollar oqimi oqizog'dek ongu shuurimizda shubhalar epkinini hosil



qilaveradi. Tosh qotgan yellar o'zining suratidan ijrig'anganday bo'laveradi. Aslida, bu holatlar bor-yo'g'i rassom dunyosining ona tabiatga bo'lgan timsoliy tashabbusi hosilasidir.

Yellar hayron o'z suvratidan, Yog'dularga yo'g'rilgan Kungay. Kungayning yog'dularga chulg'unishi qo'qqisdan yurak chiltorini chertadi, ismsiz kuy ulashadi...

Ha, shubhatdoshimiz aytganidek, O'rol Tansiqboyev kuylarining qanoti bor. Yurak chiltorini chertib, sizni bexosdan go'zal va betakror olamlarga boshlaguvchi sirli

lahzalari mavjud... Shu bois, rassom ijodi oradan bir asrdan ortiq vaqt o'tsa-da, o'z sirini, jozibasini, qadru qimmatini oshirsa oshiryaptiki, kamaytirgani yo'q. Rassomning uyu-muzeyidan qaytar ekanman, bu qanotlar menga ham ilhom hadya etdi: ...Har gal molbertga boqsam, Hayot rangin izlayman, Tog'larda kezib yurgan musavvirni eslayman.

Muxtasar TOJIMAMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. NASHR INDEKSI — 236. Buyurtma — 2574. 41157 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhib: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy